

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 20 324,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar- mart oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



106,3 %

20 324,6 mlrd. so'm



109,7 %

6,1 %



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mird. so‘m		<i>O’sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	2024- yil	2025- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>17 438,0</b>	<b>20 324,6</b>	<b>106,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	17 114,0	19 907,8	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	324,0	416,8	110,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati</b>	<b>17 114,0</b>	<b>19 907,8</b>	<b>106,2</b>
<b>qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>3 274,6</b>	<b>3 774,7</b>	<b>103,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)</b>	<b>4 063,8</b>	<b>4 658,5</b>	<b>105,4</b>
sanoat	3 059,1	3 525,2	105,0
qurilish	1 004,7	1 133,3	106,8
<b>xizmatlar</b>	<b>9 775,6</b>	<b>11 474,6</b>	<b>107,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 786,8	3 442,6	112,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 562,3	1 970,9	116,4
boshqa xizmat tarmoqlari	5 426,5	6 061,1	101,9

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 719,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,1 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	2024- yil	2025- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	98,1	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	19,1	19,0
<b>sanoat (qurilishni qo’shgan holda)</b>	<b>23,8</b>	<b>23,4</b>
sanoat	17,9	17,7
qurilish	5,9	5,7
<b>xizmatlar</b>	<b>57,1</b>	<b>57,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	16,3	17,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	9,1	9,9
boshqa xizmat tarmoqlari	31,7	30,4



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

5

2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 19,0 % ni, sanoat tarmog'i 17,7 % ni, qurilish 5,7 % ni va xizmatlar sohasi 57,6 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2024- yil



19,1 %

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilk xo'jaligi

1,9 %

17,9 %

Sanoat

5,9 %

Qurilish

57,1 %

Xizmatlar

2025- yil

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilk xo'jaligi

19,0 %

2,1 %

Sanoat

17,7 %

Qurilish

5,7 %

Xizmatlar

57,6 %



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,9 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,1 f.p. (2024- yilda – 3,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



6,3 %

### Sanoat



0,7 %

0,9 %

### Xizmatlar



4,1 %

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



0,4 %



### Mahsulotlarga sof soliqlar



0,2 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 19,0 %), sanoatda – 105,0 % (17,7%), qurilishda – 106,8 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (57,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,9 % (17,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,4 % (9,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,9 % dan (30,4 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.



6,0 %

YAHM

6,3 %



3,4 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,8 %



5,2 %

Sanoat

5,0 %



4,4 %

Qurilish

6,8 %



7,3 %

Xizmatlar


7,3 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 111,0 % va sanoatda – 109,8 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 13 118,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 11 615,7 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 65,9 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 67,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʼliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2024- yil

11 615,7

67,9 %

2025- yil

13 118,0

65,9 %

